

KOREYS TILI FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASINING O‘ZIGA XOSLIGI: HAYVON OBRAZIGA OID FRAZEOLOGIZMLAR ASOSIDA

Akbarov Azamat Adxamjonovich

O‘zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti koreys filologiyasi

kafedrası o‘qituvchisi,

Media va kommunikatsiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

azamatdoc1984@gmail.com

+998 88 5544442

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak tarjimonlar uchun hayvonlar obrazi ishtirok etgan frazeologik birikmalarni oson va to‘g‘ri tarjima qilishga ko‘maklashish maqsadida koreys tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan frazeologizmlar tanlab olinib, ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan taqqoslangan. Shuningdek, frazeologizmlarga ta‘rif berilib, tilshunoslikda frazeologizmlarga oid tadqiqotlar hamda ularning madaniy ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, frazeologik birliklar, hayvonlar obrazi, hasharotlar, dengiz hayvonlari.

Аннотация: В данной статье с целью облегчить и корректно осуществлять перевод фразеологических единиц с образами животных, наиболее употребляемые корейские фразеологизмы были отобраны и сопоставлены с их узбекскими эквивалентами. Кроме того, приводится определение фразеологизмов, рассматриваются исследования, посвящённые фразеологии в лингвистике, а также обсуждается их культурное значение.

Ключевые слова: фразеологизм, фразеологические единицы, образы животных, насекомые, морские животные.

Abstract: *This article aims to assist prospective translators in easily and accurately translating idiomatic expressions containing animal imagery. To this end, the most frequently used Korean phraseological units were selected and compared with their Uzbek equivalents. In addition, definitions of phraseologisms are provided, relevant linguistic studies on phraseology are reviewed, and their cultural significance is discussed.*

Keywords: *phraseologism, phraseological units, animal imagery, insects, marine animals.*

Xorijiy tillardagi matnlarni ayniqsa badiiy tarjima qilish jarayonida matnni to'laonli tarjima qilib o'quvchiga yetkazish uchun maqol, ibora va frazeologizmlarning to'g'ri tarjima qilish muhim jihat hisoblanadi. Chunki, aynan maqol, ibora va frazeologizmlar kontekst ma'nosini to'liq yetkazibgina qolmay, badiiy asar holatini yorqin tasvirlab berish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun, badiiy tarjima jarayonida so'zma-so'z tarjima bilan bir qatorda ba'zi so'z va iboralarning, jumladan, frazeologizmlarning ma'noviy ekvivalentidan foydalanishga ruxsat beriladi. Biroq, tarjima shunchaki boshqa tildagi ekvivalentni topish emas, balki asl nusxani takroriy yozishdek muhim jarayondir. Chunki, tarjima bir madaniyatni boshqasiga ta'siri hisoblanadi [5, 26]. Shu sababli, tarjimondan, nafaqat, so'zamonlik balki boshqa madaniyat bilan yaqindan tanishlik talab etiladi.

Frazeologizm — bir necha so'zdan iborat bo'lib, ma'no jihatidan bir-biriga o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi hisoblanadi [1, 624]. Frazeologizmlar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksik grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo'llaniladi [3, 889].

Frazeologiya tilshunoslikning alohida fani sifatida XX asrda o'rganila boshlandi va tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida rivojlandi. Shunga qaramay, frazeologizmlar, nafaqat, xalq og'zaki ijodida balki badiiy adabiyotlarda bir necha yuz yillar avvaldan qo'llanib kelingan. Biroq, ularni tilshunoslikning alohida qismi sifatida tizimli, nazariy va kompleks o'rganish ishlari, nisbatan, keyinroq boshlangan. Ma'lumki, "Frazeologiya" termini ilmiy muomalaga rus tilshunosligi orqali kirib kelgan bo'lib, bu boradagi dastlabki tadqiqotlar mashhur olim V.V. Vinogradov tomonidan amalga oshirilgan. U frazeologizmlarni uch turga bo'ladi: frazeologik birikmalar, frazeologik birliklar va frazeologik iboralar.

G'arbda esa R. Moon, J. Sinclair va N. Chomsky kabi olimlar frazeologizmlarning o'ziga xosligi va tarjimadagi ahamiyatini hamda millatning madaniy merosi sifatida o'rganganlar. Ularning fikriga ko'ra, frazeologizmlar milliy madaniyat va mentalitetning nutqiy ifodasi bo'lib, turli tillarda ularning tuzilishi va mazmuni madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarga oid dastlabki tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab amalga oshirila boshlandi. Bu borada M. Mirtojiev, A. Madvaliyev, A. Jo'rayev, M. Qodirova, X. Nurmonov kabi olimlarning xizmatlari katta [4, 752].

Koreya milliy madaniyati katta ensiklopediyasida (한국민족문화대백과사전) frazeologizmni "관용구" deb atalib, Koreyada XX asr oxirlarida keng o'rganila boshlandi. Jumladan, koreys tilshunoslari Kang Wi-gyu (강위규), Kim Hye-suk (김혜숙), Choe Gyeong-bong (최경봉) va boshqalar frazeologizmlarning nazariy va amaliy ahamiyatini o'rganganlar.

Frazeologizmlarning uslubiy-semantik jihatlarini uzoq yillar davomida o'rgangan A. Mamatov ularni quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Quvonch, shodlik va baxt kabi his-hayajonni anglatuvchi frazeologik birliklar: do'ppisini osonga otmoq.

2. Hayratlanish, ajablanishni ifodalovchi frazeologik birliklar: yoqasini ushlamoq.
3. G'am-alam, xafagarchilik va qayg'uni ifodalovchi frazeologik birliklar: yuragi qon bo'lmoq.
4. Qo'rquv, haqiq va dahshatni ifodalovchi frazeologik birliklar: yuragi shuv etmoq.
5. Bezovtalik va notinchlikni ifodalovchi frazeologik birliklar: o'zini qayerga qo'yishni bilmasdan qolmoq.
6. Masxara, boshqalarning ustidan kulish hamda izzat-nafsga tegishni ifodalovchi frazeologik birikmalar: bir pulga olmaslik.
7. Hasad va ko'rolmaslikni ifodalovchi frazeologik birikmalar: tagiga suv quymoq.
8. Or-nomus va uyatni ifodalovchi frazeologik birikmalar: uyatdan yerga kirmoq.
9. Do'q-po'psani ifodalovchi frazeologik birikmalar: adabini berib qo'ymoq.

Frazeologizmlarda ma'noni kuchaytirish uchun inson tanasi a'zolari, hayvonlar, o'simlik hamda tabiat hodisalariga oid so'zlardan keng foydalaniladi [2, 14] Jumladan, koreys og'zaki ijodida hamda badiiy asarlarida ham aynan hayvonlar, hasharotlar va dengiz hayvonlarini aks ettirgan frazeologik birikmalardan keng foydalaniladi. Hayvonlarni anglatgan leksikani har ikki tilga ham oson tarjima qilish mumkin: 개-it, 고양이-mushuk, 뱀-ilon, 원숭이-maymun, 말-ot va boshqalar. Biroq, ba'zi-bir hasharotlar ayniqsa, dengiz hayvonlarining o'zbek tilidagi muqobilini topish tarjimonga mushkullik tug'duradi. Shu sababli, ush bu maqola orqali An Ji Young (안지영, 2022) ta'kidlaganidek, koreys tilida eng ko'p qo'llaniladigan hayvonlar, jumladan, hasharotlar va dengiz hayvonlariga oid 30ta frazeologizmni tanlab olib, o'zbek tilidagi ta'rifi va muqobilini topishni maqsad qilingan.

Hayvonlarga oid frazeologizmlarning qiyosiy tahlili

№	Koreyscha frazeologizm	Koreyscha ma'nosi	So'zma-so'z tarjimasi	O'zbek tilidagi muqobili
1	개 발에 땀 나다	해내기 어려운 일을 이루기 위하여 부지런히 움직임을 이르는 말	It oyog'idan ter chiqmoq	Eshshakdek ishlamoq
2	개미 새끼 하나 볼 수 없다	아무도 찾아볼 수 없다	Chumolining bolasini ham ko'rish mushkul	Biron jonzot topilmaydi
3	개 걸음을 치다	걸음이나 사업이 몹시 느리거나 발전이 없다	Qisqichbaqadek yurish qilmoq	Ish orqasiga ketmoq
4	고기 밥이 되다	물에 빠져 죽다	Baliqqa taom bo'lmoq	Itga yem bo'lmoq
5	꼬리를 드러내다	정체를 드러내다	Dumini ko'rsatmoq	Asl basharasini ochmoq
6	낙동강 오리알	무리에서 떨어져 나오거나 홀로 소외되어 처량하게 된 신세를 비유적으로 이르는 말	Nakdong daryosining o'rdak tuxumi	Chekkaga chiqarib qo'ymoq
7	날개가 돋치다	상품이 시세를 만나 빠른 속도로 팔려 나가다	Qanoti chiqmoq	Bozori chaqqon bo'lmoq
8	닭똥 같은 눈물	몹시 방울이 굵은 눈물을 비유적으로 이르는 말	Tovuq axlatidek ko'zyosh	Ko'z yoshi yuzni yuvmoq
9	독 안에 든 쥐	궁지에서 벗어날 수 없는 처지를 비유적으로 이르는 말	Xum ichiga tushgan sichqon	Tuzoqqa tushmoq
10	목이 보고 칼 빼기	시시한 일에 성을 냄을 이르는 말	Chivinni ko'rib pichoqni qinidan chiqarmoq	Pashshadan fil yasamoq

11	물고기 잡히듯 하다	쉽게 잡히거나, 텃에 걸리는 뜻	Baliq tutilgandek	Xamirdan qil sug'urgandek
12	문어 제 다리 뜯어먹는 것	꽤거리끼리 서로 헐뜯고 비방하는 것을 비유하는 뜻	Sakkizoyoq o'z oyog'ini yemoq	O'z oyog'iga bolta urmoq
13	무는 개를 돌아본다	너무 순하기만 하면 도리어 무시당하거나 관심을 끌지 못함을 비유적으로 이르는 말	Tishlaydigan itni orqaga qarab ko'rmoq	Boshqa chiqarmoq
14	미꾸라지 용 됐다	미천하고 보잘 것없던 사람이 크게 되었음을 비유적으로 이르는 말	Mayda ilonbaliq ajdarga aylandi	Yo'qdan bor bo'lmoq
15	뱀을 잡다	잘못 대하다가 크게 봉변을 당하다	Ilonni tutmoq	Qarmoqqa ilinmoq
16	벌집을 건드리다	건드려서는 안 될 것을 공연히 건드려 큰 화근을 만들다	Ari uyasini qo'zg'amoq	Yotgan ilonni bosmoq
17	범의 아가리	매우 위태한 지경을 비유적으로 이르는 말	Yo'lbars og'zi	Itning kunini ko'rmoq
18	빈대 붙다	남에게 빌붙어서 득을 보다	Bitdek yopishmoq	Kanadek yopishib olmoq
19	소 잡아 먹다	아주 음흉한 일을 하다	Ho'kizni tutib yemoq	Gunoh ishga qo'l urmoq
20	쇠가죽을 무릅쓰다	부끄러움을 생각하거나 채면을 돌아보지 않다	Sigir terisini e'tiborsiz qoldirmoq	Betni qalin qilmoq
21	쉬파리 꿀 듯	무질서하고 복잡하게 모여 있는 경우를 비유적으로 이르는 말	Pashsha qaynagandek	Muammolar qaynab yotmoq

22	원숭이 달 잡기	원숭이가 물에 비친 달을 잡으려다가 빠져 죽는다는 데서, 사람이 제 분수에 맞지 아니하게 행동하다가 화를 당함을 비유적으로 이르는 말	Maymun oyni tutishi	Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq
23	인왕산 호랑이	몹시 무서운 대상을 비유적으로 이르는 말	Invang tog'ining yo'lbarisi	Arvohni ko'rgandek
24	자라목 오그라들 듯	송구스럽거나 부끄러워 목이 움츠러드는 모양	Toshbaqa bo'ynini yashirmoq	Yer yorilib yerga kirmoq
25	참새 물 먹듯	음식을 조금씩 여러 번 먹는 모양을 비유적으로 이르는 말	Chumchuq suv ichgandek	Cho'qilab yemoq
26	코끼리 비스킷	먹으나 마나 한 매우 적은 것을 비유적으로 이르는 말	Fil biskviti	Ishtahasi karnay
27	파리를 날리다	영업이나 사업 따위가 잘 안 되아 한가하다	Pashshani uchirmoq	Pashsha qo'rib o'tirmoq
28	파리 잡듯	힘들이지 아니하고 죽여 없애는 모양을 비유적으로 이르는 말	Pashshani tutgandek	Pista chaqqandek
29	학춤을 추이다	남의 팔이나 덜미를 치켜들고 혼을 내어 주다	Turna raqsiga o'ynatmoq	Oyoq, qo'li dag'- dag' titramoq
30	한라산 토끼 모양	놀라서 눈이 동그해진 모양을 비유적으로 이르는 말	Halla to'gining quyonidek	Ko'zi kosasidan chiqmoq

Yuqorida ta'kidlanganidek, frazeologizmlar bir millatning madaniyati, urf-odatlari va hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq. Keltirilgan 30ta misollardan ham ko'rish mumkinki, koreys tilidagi frazeologik birikmalarda hayvon obrazining o'ri alohida bo'lib, o'zbek tilida kam uchraydigan dengiz hayvonlari, baliqlar yoki hasharotlar obrazlaridan keng foydalanilgan. Masalan, Koreya yarim orolining uch tomoni dengiz bilan o'ralgani uchun baliq va dengiz jonzotlari (물고기, 춘치, 생치) kundalik hayotga undan so'ng esa tilga ko'chganligi sababli bunday obrazlarni xalq og'zaki ijodida, jumladan, frazeologik birikmalarda ham ko'p uchratishimiz mumkin. Undan tashqari, koreys adabiyotida ko'p uchraydigan yo'lbars (호랑이), maymun (원숭이), quyon (토끼) kabi hayvonlar obrazlarini, nafaqat, ertak yoki maqollarda balki frazeolik birikmalarda ham keng qo'llanishini bilish mumkin.

Shu kabi, koreys tilidagi frazeologik birikmalarning o'ziga xosligi hamda ushbu maqolada tahlil qilingan frazeologik birikmalarning semantik tarjimasiga oid ko'nikmalarga ega tarjimonlar har qanday matnning ma'nosini ifodalashda to'siqlarga uchramaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elmuratova O'. O'zbek va koreys tillarida frazeologik iboralarning xususiyatlari //Eurasian Journal of Academic Research. Toshkent, 2022.-№2(2). -B.624.
2. Mamatov A. O'zbek tili frazeologiyasi. Toshkent: Navro'z, 2019.-11 b.
3. Toshpo'latova O'. Frazeologizmlar haqida ma'lumot. Badiiy asarlarda frazeologizmning qo'llanishi va ma'nosi // New Renaissance. Toshkent, 2023.- №1(10). -B.889.
4. Saidov I. Koreys va o'zbek tilida iboralarning qiyosiy tahlili va ta'lim jarayonidagi ahamiyati // Global lingvistika: yangi yondashuvlar va tadqiqotlar. Toshkent, 2025. -B. 751-752.
5. G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012.-26 b.

INTERNET NASHRLAR:

6. 안지영. <https://blog.naver.com/livepoetry/222882206366>
7. 한국민족문화대백과사전. <https://encykorea.aks.ac.kr>